

**O'ZBEKISTON RESPUBLIKASI QISHLOQ VA SUV XO'JALIGI
VAZIRLIGI**

**TOSHKENT IRRIGATSIYA VA MELIORATSIYA ISTITUTI
YERDAN FOYDALANISH VA YER KDASTRI FAKULTETI
"GEODEZIYA VA YER KADASTRI " KAFEDRASI**

YER KADASTRI

1-mavzu: DAVLAT ER KADASTRINING NAZARIY ASOSLARI

**1.2 Davlat kadastrlarining yagona tizimida er kadastrining o`rni,
vazifasi va ahamiyati**

Тошкент 2013.

O'zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining 1996 yil 17 iyuldagi «O'zbekiston Respublikasi davlat kadastrlari Yagona tizimini tashkil etish hamda uni yuritish tartibi to'g'risidagi Nizomni tasdiqlash haqida» gi 255-sonli qaroriga binoan bugungi kunda Respublikada qator rivojlangan horijiy davlatlardagi singari davlat kadastrining yagona tizimi yaratilmoqda.

**Davlat
kadastrining
yagona tizimi
(DKYAT)**

bu barcha turdagi
davlat va tarmoq
kadastrlarini yagona
tamoyil asosida
birlashtiruvchi kup
qirrali informatsion
tizim hisoblanadi.

DKYAT ning ob'ektlari quyidagilardir:

- tabiiy resurslar (er, suv, o'rmon, er osti qazilma boyliklari va boshq.);
- binolar va inshootlar, transport va muhandislik kommunikatsiyalari;
- geodezik tarmoqlar punktlari;
- DKYAT vazifalarini bajarish uchun zarur bo'lgan ob'ektlar;
- DKYAT ning ob'ektlari to'g'risidagi ma'lumotlar respublika bo'yicha qo'yidagicha yagona texnologik asosida qaraladi:
- davlat er kadastri bo'yicha – joylardagi davlat hokimiyati tizimi, qishloq va suv xo'jaligi vazirligi tizimi tomonidan;

DKYAT ning ma'lumotlari asosan quyidagi maqsadlar uchun foydalaniladi:

- iqtisodiy islohatlarni, jumladan er islohatini amalga oshirish;
- hududni majmualiy tarzda ijtimoiy iqtisodiy rivojlantirishga dasturlar
- va bashoratlar tuzish;
- tabiiy resurslar va kuchmas mulkni majmualiy tarzda hisob qilish, baholash
- hamda davriy monitoringini o'tkazish;
- xo'jalik yuritish sub'ektlari tomonidan tabiiy ob'ektlar va hududlarga
- etkazilgan zararni baholash;
- hududlar to'g'risida ma'lumotlar talab qilinadigan boshqa faoliyatlarni amalga oshirish.

DKYAT quyidagi tamoyillarga binoan yuritiladi:

respublikaning barcha hududlarini to'la qamrab olish;

markazlashgan rahbarli

kadastr ma'lumotlarini qayta ishlash va taqdim etishning birligi

barcha turdagi kadastrlar tizimining er kadastri asosida shakllanishi

avtomatlashtirilgan informatsion texnologiyalarni qo'llash;

Er uchastkalari turli o'lchamlarda, shakllarda, relefda, tuproqlarda, tabiiy o'tlar va gidrografik sharoitda uchraydi. Er maydonlarining kenglik sharoiti qishloq xo'jaligida katta ahamiyatga ega, negaki ular ishlab chiqarish jarayonlariga emas, balki butun qishloq xo'jaligi ishlab chiqarishini tashkil etishga ta'sir ko'rsatadilar. Er uchastkalarining o'lchamlari, shakllari, joyning reliefi va erning boshqa xususiyatlari ishlab chiqarish vositalari hamda ishlab chiqarishni tashkil etish xarakterini belgilaydi, mehnat unumdorligiga katta ta'sir ko'rsatadi. Bularning barchasi er maydonlarining kenglik sharoitini hisobga olish zarurligini ko'rsatadi, hamda shu bilan birga er kadastrini turli plan-xaritalar yordamida yuritish imkonini beradi.

Er kadastri qishloq xo`jalik korxonalarining ishlab chiqarish faoliyatini, eng avvalo, erlardan foydalanish samaradorligini tahlil qilish uchun ham katta ahamiyatga ega. SHu nuqtai nazardan qishloq xo`jalik ishlarining o`lchamlari va holatini hisob-kitob qilibgina qolmasdan, balki ular mahsuldorligini siyosiy baholash, birinchi navbatta, alohida qishloq xo`jalik ekinlarini etishtirish samaradorligi nuqtai nazardan baholash zaruriyati tug`iladi.

Shunday qilib, er kadastrining vazifasi bugungi kunda ko'p qirralikdir. Ular xalq xo'jaligi talablaridan jumladan, er resurslaridan oqilona va samarali foydalanish zaruriyatlari hamda talablaridan kelib chiqqan. Bularning barchasi davlat er kadastrining xalq xo'jaligi ahamiyatiga molik ekanligi yana bir karra namoyon kiladi.